



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SOLIQ QO‘MITASI RAISI O‘RINBOSARINING
B U Y R U G‘ I

2023 -yil 07 - 06

126 -son

Soliq xizmati organlari, qo‘mita tasarrufidagi idora, tashkilot hamda o‘quv muassasalarida yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni taqdim etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi (bundan keyingi o‘rinlarda – qo‘mita) va uning quyi tuzilmalari, qo‘mita tasarrufidagi idora, tashkilot hamda o‘quv muassasalarida yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni taqdim etish tartibini takomillashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda vazirlikning hududiy bo‘linmalarida yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish tartibi to‘g‘risida” 2023-yil 31-maydagi 84-son buyrug‘i ijro va nazorat uchun qabul qilinsin.

2. Soliq organlari, qo‘mita tasarrufidagi idora, tashkilot va o‘quv muassasalarida yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqida qo‘mitaga taqdim etiladigan **ma‘lumotlar ro‘yxati** 1-ilovaga hamda **xizmat ma‘lumotnomasi** namunasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar soliq boshqarmalari, Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasi, qo‘mita tasarrufidagi idora, tashkilot hamda o‘quv muassasalari rahbarlari** – yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqida 1-ilovada qayd etilgan ma‘lumotlarni belgilangan muddatlarda qo‘mitaga yuborilishini ta‘minlasin.

4. Qo'mita markaziy apparatining tuzilma rahbarlariga – qo'l ostidagi xodimlar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan salbiy holatlar haqida xabar topgan vaqtdan boshlab **zudlik bilan** Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasini xabardor qilish hamda qo'mita rahbariyatiga bildirishnoma taqdim etish vazifasi topshirilsin.

5. Belgilansinki:

salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqida taqdim etiladigan ma'lumotlar soliq organi boshlig'i yoki boshliq vazifasini bajarayotgan shaxslar tomonidan shaxsan (elektron) imzolanadi hamda (elektron) imzo qo'ygan shaxslar ma'lumotning haqqoniyligi va o'z vaqtida yuborilishi uchun mas'ul hisoblanadi;

yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar bo'yicha ma'lumotlarning o'z vaqtida taqdim etilmasligiga sababchi bo'lgan (rahbar) xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar soliq boshqarmalari, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasi, qo'mita tasarrufidagi idora, tashkilot va o'quv muassasalari rahbarlari mazkur buyruq asosida **uch kun muddatda** tashkilotning ichki idoraviy hujjatini qabul qilsin.

7. Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi (J.Raximjonov) zimmasiga – soliq organlari, qo'mita tasarrufidagi idora, tashkilot va o'quv muassasalarida yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqida Iqtisodiyot va moliya vazirligiga axborot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Tashkiliy ishlar va nazorat boshqarmasi (E.Jurayev) mazkur buyruqni **bir kun muddatda** quyi soliq organlariga yetkazilishini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2010-yil 30-sentabrdagi 266-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Rais o'rinbosari M.Maxkamov zimmasiga yuklansin.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 31-maydagi 84-son buyrug'i.

Rais o'rinbosari



A. Fayzibayev

Soliq qo‘mitasi
Raisi o‘rinbosarining
2023-yil 7 -iyundagi 126 -son buyrug‘iga
1-ilova

**Soliq organlari, qo‘mita tasarrufidagi idora, tashkilot va o‘quv muassasalarida (keyingi o‘rinlarda – Soliq tizimi)
yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqida
Soliq qo‘mitasiga taqdim etiladigan ma‘lumotlar**

RO‘YXATI

T.r.	Yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalarning mazmuni	Ma‘lumotni yuborish muddati	Ma‘lumotni yuborish usuli
1.	Soliq qo‘mitasi tizimi xodimlariga nisbatan ularning xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlari yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ayb e‘lon qilinishi yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi va ularni hibsga olinishi yoxud ushlab turilishi holatlari to‘g‘risida	zudlik bilan	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
2.	Hududlarda ro‘y bergan tabiiy ofat (<i>zilzila, suv toshqini, yong‘in, tog‘ ko‘chkisi, kuchli dovul, sel kelishi va hokazo</i>) oqibatida Soliq qo‘mitasi tizimidagi ma‘muriy binolariga, xodimlar va ularning oila a‘zolariga moddiy va ma‘naviy zarar (<i>shuningdek, tan jarohati</i>) yetkazilishi holati to‘g‘risida	zudlik bilan	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
3.	Soliq qo‘mitasi tizimi xodimlari tomonidan yo‘l-transport hodisasi sodir etilishi, shuningdek, yo‘l transport hodisasi natijasida xodimlar yoki fuqarolarning halok bo‘lishi yoxud tan jarohati olish holatlari haqida	zudlik bilan	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
4.	Soliq qo‘mitasi tizimi yoki xodimlarning mol-mulkiga moddiy zarar yetkazilishi, ya‘ni mol-mulkning talon-toroj qilinishi, o‘g‘irlash, o‘t qo‘yib yuborish, shikast yetkazib foydalanishga yaroqsiz holatga keltirish va shu kabi boshqa usullar bilan moddiy zarar yetkazish holatlari haqida	zudlik bilan	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
5.	Soxta “xodim” aniqlanganda	zudlik bilan	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali

6.	Soliq qo‘mitasi tizimi xodimlari xizmat vazifalarini bajarish vaqtida ularning sog‘lig‘iga, hayotiga tajovuz qilinishi oqibatida ularga tan jarohati yetkazilishi yoxud o‘limiga sabab bo‘lishi, shuningdek, xodimlarga nisbatan do‘q-po‘pisa va boshqa ig‘vogarlik harakatlari qilinishi holatlari to‘g‘risida	zudlik bilan	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
7.	Soliq qo‘mitasi tizimi xodimlarining o‘limi yoki shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan baxtsiz hodisalar haqida	zudlik bilan	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
8.	Ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga sabab bo‘lgan Soliq tizimiga aloqadar holatlar va hodisalar, bir guruh yoki ayrim shaxslarning salbiy munosabatlari, noroziliklar, yig‘ilish va namoyishlar haqida.	zudlik bilan	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
9.	Soliq qo‘mitasi tizimiga tegishli xonalaridan hujjatlar va mol-mulkning yo‘qolishi yoki o‘g‘irlanishi holatlari to‘g‘risida	1 kun muddatda	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
10.	“Maxfiy” hamda “Xizmatda foydalanish uchun” (XFU) grifli hujjatlarining yo‘qotilishi holatlari haqida	1 kun muddatda	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
11.	Soliq qo‘mitasi tizimi xodimlari tomonidan xizmat guvohnomalari, temir muhrlar hamda qat‘iy hisobda turuvchi boshqa hujjatlarning yo‘qotilishi holatlari to‘g‘risida	1 kun muddatda	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
12.	Soliq nazorati natijalari (<i>soliq tekshiruvlari va boshqa soliq qonunchiligidagi huquqbuzarliklar</i>) yuzasidan rasmiylashtirilgan hujjatlarning yo‘qotilishi haqida	1 kun muddatda	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
13.	Soliq qo‘mitasi tizimi xodimlariga nisbatan ularning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan prokuratura, sud, adliya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning taqdimnomalari, xususiy ajrimlari va boshqa (e’tirozli) hujjatlar kelib tushganligi holatlari to‘g‘risida	1 kun muddatda	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali
14	Ish vaqtidan tashqari vaqtlarda Soliq qo‘mitasi tizimi xodimlari bilan sodir bo‘lgan boshqa salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqida.	1 kun muddatda	“Elektron hujjat almashish” AAT orqali

Soliq qo‘mitasi Raisi o‘rinbosarining
2023-yil 7-iyundagi 126-son buyrug‘iga
2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi
huzuridagi Soliq qo‘mitasiga**

XIZMAT MA‘LUMOTNOMASI



_____ – 19__ yilda _____ tumanida
tug‘ilgan, oilali, ___ nafar farzandi bor. Ma‘lumoti oliy, _____ yilda
_____ institutini _____ mutaxassisligi bo‘yicha
tamomlagan. Tizimda _____ yildan, egallab turgan lavozimida _____ yil
_____ oyidan buyon ishlab kelmoqda. _____ tumani,
_____ ko‘chasi, _____-uyda istiqomat qiladi.
_____ 20__-yil yanvar-_____ oylari davomida
_____ mln.so‘m (o‘rtacha oyiga _____ mln.so‘m) miqdorida oylik maosh
olgan.

Joriy yilning ___-___ kuni soat XX:XX da _____ viloyati _____ boshqarmasi
(lavozimi to‘liq ko‘rsatiladi) _____ fuqaro _____ dan (sababi to‘liq ko‘rsatiladi)
uchun pora tariqasida talab qilingan _____ so‘mdan _____ so‘mini olgan vaqtida viloyat
DXX va IJQK Departamenti tomonidan o‘tkazilgan tezkor tadbirda ushlanib, protsessual tartibda
rasmiylashtirilgan.

Ushbu holat yuzasidan tuman prokuraturasi tomonidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib,
dastlabki surishtiruv ishlari olib borilmoqda.

_____ viloyati
soliq boshqarmasi boshlig‘i

_____ (imzo)

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi
huzuridagi Soliq qo‘mitasiga**

XIZMAT MA‘LUMOTNOMASI



_____ – 19__ yilda _____ tumanida
tug‘ilgan, oilali, ___ nafar farzandi bor. Ma‘lumoti oliy, _____ yilda
_____ institutini _____ mutaxassisligi bo‘yicha
tamomlagan. Tizimda _____ yildan, egallab turgan lavozimida _____ yil
_____ oyidan buyon ishlab kelmoqda. _____ tumani,
_____ ko‘chasi, _____-uyda istiqomat qiladi.

Joriy yilning ___-___ kuni soat XX:XX da _____ viloyati _____ boshqarmasi
(lavozimi to‘liq ko‘rsatiladi) _____ ish xonadan chiqib uyiga ketayotgan vaqtida
_____ mahallasi _____ ko‘chasida ehtiyotsizlik oqibatida avtotransport vositasi
bilan yo‘l transport hodisasi sodir bo‘lgan.

Yo‘l transport hodisasi natijasida _____ bosh qismidan og‘ir tan jarohati olib,
_____ tumani markaziy shifoxonasining jonlantirish bo‘limiga yotqizilgan.

Ushbu holat yuzasidan tuman Ichki ishlar bo‘limi tomonidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib,
dastlabki surishtiruv ishlari olib borilmoqda.

_____ viloyati
soliq boshqarmasi boshlig‘i

_____ (imzo)